

TABOTABOIY QARASHLARIDA DIALEKTIK MATERIALIZM TAHLILI

Allanazarov Mukhiddin Khaitovich

Vice dean for youth affairs Institute of engineering and economics in Qarshi

Keywords: *Dialektik materializm, modda, materiya, metod, moddiyunchilik.*

KIRISH (Introduction)

Zamonaviy islom ilohiyotshunosligida yangicha metodologiyani ishlab chiqqan, o‘z salaflarining eng yaxshi an‘analarini davom ettirgan, ularning falsafiy g‘oyalarini yangi mazmun-mohiyat bilan boyitgan olim, XX asrning zabardast mutafakkirlaridan biri alloma Muhammad Husayn Tabotaboiydir. Ilohiyotshunos olim islom aqidalari sharhlovchisi va faylasuf sifatida Alloma Tabotaboiy nomi bilan mashhur bo‘lgan. Tabotaboiy chuqur ilm egasi va keng dunyoqarash sohibi bo‘lganligi uchun ham “Alloma” unvoniga loyiq, deb topilgan. Allomaning ma’naviy merosi 46 ta yirik asarlarida bayon etilgan. Tabotaboiy 1892-yilda Eronning Tabriz shahrida dunyoga kelgan. Allomaning ajdodlaridan biri bo‘lgan, Tabriz shahrining obro‘li insoni Sirojiddin Abdulvahob Hasan Husayn Samarqandda tug‘ilgan va keyinchalik Tabrizga ko‘chib ketgan. Bundan kelib chiqadiki, mutafakkir ajdodlari Samarqandning islomiy va ilmiy qadriyatlari asosida tarbiyalangan va bu ijtimoiy dunyoqarash keyinchalik mutafakkirning qarashlari shakllanishiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. U XX asr ijtimoiy ongiga katta ta’sir ko‘rsatgan dialektik materializm falsafasini chuqur tahlil etgan va asosli tanqidiy fikrlarini bildirgan mutafakkir hisoblanadi. Biz ushbu allomaning fikr-mulohazalarini tahlil etishga harakat qildik.

MUHOKAMA VA NATIJALAR (Discussion and results)

“Dialektik materializm” – XIX asr oxiridan XX asrning so‘nggi choragiga qadar dunyo falsafa ilmini yana bir katta munozaralar maydoniga tashladi. Ikkinchi tomondan, bir siyosiy partiyaning bayrog‘iga aylandi. Materialistik (moddiy) falsafa

partiya maromiga bog‘liq holda rivojlandi va kommunistik partiya dunyoda qancha salohiyat va nufuzga erishsa, “dialektik materializm” nomi bilan mashhur bo‘lgan yangi materialistik falsafani o‘zi bilan birga olib bordi.

Tabotaboiiy o‘zining “Falsafa metodi va realizm usuli” asarida shunday yozadi: “... keyingi yillarda bizning mamlakatimizda ham “dialektik materializm” nomi bilan ko‘plab kitoblar, risolalar va maqolalar nashr etildi. Bu nashrlar partiya talab va qonunlari asosida (ilmiy va falsafiy nashrlarda emas) targ‘ibot turlaridan bo‘lmish partiya nashrlarida chop etilgan. Yangi davr moddiyunchilari butunlay “hissiy va tajriba bilimlari moddiylik foydasiga rivojlanmoqda” degan tasavvurga ega bo‘lib qolganlar, lekin dialektik materializm tarafdorlari shunday bir mubolag‘a va adashtiruvchi yo‘lni tanlaganlarki, ular moddiylikni ilmning rad etib bo‘lmas xususiyati va to‘g‘ridan-to‘g‘ri samarasi, deb tanishtiradilar, hatto bu bilimni ishlab chiqqan, ammo materialist bo‘lmagan donishmandlarning o‘zlari bundan taajjubdalar. Bu maktab tarafdorlari ochiqdan-ochiq, yoki ilohiy hikmatga bo‘ysinish, barcha bilim, ixtirolar va sinoatlarni inkor etib, xudoni tan olish lozim, yoki bularni qabul qilib va tan olib, ilohiy hikmatdan voz kechish lozim, deb da’vo qiladilar”.¹

Tabotaboiiy gnoseologiyasida bilish uslublari borasida mulohaza yuritishda avvalo uning “Falsafa uslubi va realizm metodi” nomli falsafiy asariga diqqat qaratishimiz lozim. Alloma ushbu asarning asosiy qismini bilish uslublariga bag‘ishlagan bo‘lib, asosan “dealektik materializm” kabi g‘arb moddiyunchiligi tanqidi tarzida o‘z qarashlarini bayon etganligini, shuningdek, Sharq faylasuflaridan Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Farobiy, Mullo Sadrolarning bilish falsafasidagi uslublarini yuqori baholaganligini ko‘rishimiz mumkin.

Alloma Tabotaboiiy dialektik materializm konsepsiyasini tadqiq etib, uning vujudga kelishini asoslab berishga harakat qiladi. Uning fikricha, “qadim zamonlardan boshlab falsafiy kitoblarda birlamchi sababni inkor etish, yoki ruh abstraksiyasini rad etish bilan bog‘liq qarashlar, fikrlar ko‘rib chiqilgan, ammo

¹ ۳۰ ص (O’sul-e falsafe va ravesh-e realism, Allome Tabotaboiiy, be kusheshe Said Hodiyy Xo’sravshohiy, markaze bo’rarsiho-e eslomiy, sol-e ?, sahife-e 30.)

tarixda isbotini topgan narsa shuki, qadimgilar orasida hech qachon tabiatdan chetdagi narsani butunlay inkor etgan, vujudni moddaga tenglashtirgan biror aniq maktab bo‘lmagan va falsafiy bahs-munozaralarda tabiat olamidan tashqarida bo‘lgan bir olam haqida fikr va qarashlar bo‘lgan, albatta, dastlab bu bahslar juda sodda va oddiy shaklda bo‘lgan, keyinchalik mantiqiyroq va yanada kengroq shaklga kelgan”. Demak, uning shakllanishi uzoq o‘tmishga borib taqaladi va bugungi bahslar sodda va jo‘n asoslar ustiga qurilmagan.

Qadimgi yunon falsafiy maktablari va faylasuflari miletlik Fales, Anaksemandr va Anaksimenlar ham tabiat olamidan tashqaridagi olamga ishonganlar va uni qabul qilganlar. Shuningdek, miletliklar bilan zamondosh bo‘lgan, yoki ulardan keyingi yunonliklar Suqrot davrigacha shu fikrlarni ilgari surganlar. Miletliklar bilan zamondosh bo‘lgan, yoki ulardan oldingi Hind va Xitoy (eramizdan oldingi oltinchi asr) faylasuflari ham deyarli mana shu qarash va fikrda bo‘lganligi haqida aytilgan. Mutafakkir fikricha, “shu tarzda moddiy falsafa uchun tarixiy o‘tmish va tajriba topib bo‘lmaydi, Yevropada faqat XVIII va XIX asrda paydo bo‘lib, ovoz chiqara boshladi va bir falsafiy maktab shakliga keldi. Demak, moddiy falsafaning haqiqiy tarixi o‘n sakkizinchi asrdan boshlanadi”.¹ Tabotaboiy tahlillariga ko‘ra, sof materialistik qarashlar Yevropada XVIII asrdan keyin shakllangan.

Tabotaboiy fikricha, “moddiychilarning o‘zlari moddiylik maktabi juda uzoq davrlarga borib taqalishi va dunyoning yirik donishmandlarining barchasini moddiychi sifatida keltirish va talqin etishga harakat qiladilar, bilim darg‘alarini moddiyatchi va moddiyatchilarni bilim darg‘alari deydilar, ba’zida Arastu haqida “materializm va idealizm teng” bo‘lgan, ba’zida esa Ibn Sinoni “materialist”, deb ataydilar”.² Demak, moddiyunchilik falsafasini uzoq davrlarga bog‘lashga harakat qilishsada, aslida uning shakllanishini yaqin asrlar tarixidan qidirish lozim.

Materialistlar o‘z konsepsiyalari evolyutsiyasi to‘g‘risida fikr bildirganda, yunonlarning barcha falsafasini, Fales davridan boshlab Suqrotgacha bo‘lgan davrni

¹ . ۲۲ . اصول فلسفه و روش ریالیسم، علامه طباطبایی، با پاورقی استاد مطهری، دفتر انتشارات اسلامی، سال؟ ص ۲۲ . realism, Allome Tabotaboiy, bo povaraqi o‘stod Mo‘taharriy, daftar-e enteshorot-e eslomi, sol-e ?, sahive-e 22.)

² . ۲۳ . اصول فلسفه و روش ریالیسم، علامه طباطبایی، با پاورقی استاد مطهری، دفتر انتشارات اسلامی، سال؟ ص ۲۳ . realism, Allome Tabotaboiy, bo povaraqi o‘stod Mo‘taharriy, daftar-e enteshorot-e eslomi, sol-e ?, sahive-e 23.)

“moddiylik davri”, deb atashadi. O‘n to‘qqizinchi asrning mashhur materialisti, nemis faylasufi Lyudvig Byuxner Darvin nazariyasiga bag‘ishlangan sharhida Anaksimandr, Anaksimn, Ksenofon, Geraklit, Parmenid, Empidokl, Demokrit, kabi ko‘plab faylasuflarni shu nom bilan (materialist) atagan. Biroq, mutafakkir bu yondashuvlarga qo‘shilmaydi. To‘g‘ri, ularning qarashlarida bunday yondoshuvlar namoyon bo‘lsada, sof dialektik materializm o‘n sakkizinchi asrning xosilasi hisoblanadi, deb biladi. Uning fikricha, “ushbu donishmandlarning hech birini tabiatdan tashqaridagi narsani inkor etgan materialist, deb atab bo‘lmaydi, garchi bu guruhni falsafa tarixida “tabiatchilar” yoki “materialistlar”, deb atasalarda, aksincha, matematiklar (pifagorchilar) dunyoning aslini sonlar tashkil etadi desalar, sofistlar tashqi olamning borligini inkor etardilar va tabiatda bir modda va ustun mohiyatga ishonardilar. Masalan, Fales moddalarning asosi bu - suv, Anaksimandr hiloy - apeyron, Anaksimn – havo, Geraklit – olov, deb bilardilar va bu donishmandlarning barchasi tabiat hodisalarini tabiiy sabablar, deb bilardilar, ammo tabiatdan tashqaridagi narsani inkor etganlariga hech qanday dalil yo‘q.¹ Mana shu joyda, mutafakkirning pozitsiyasi ham namoyon bo‘ladi. Ya‘ni antik davr mutafakkirlariga baho berishda shoshilmaslik, shaklga qarab emas, mazmunga qarab munosabatni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Aflotun va Arastu o‘z asarlarida bu shaxslarning nomlarini ko‘p keltirganlar, lekin hech bir o‘rinda ularni tabiatdan tashqaridagi vujudni inkor etgan deb keltirmaganlar. Ba‘zi materialistlar va yozuvchilar yuqoridagi fikrlarni hujjat va dalil sifatida keltiradilar va bular tabiatdan tashqaridagi vujudga umuman aloqador emas, agar oliy moddaga ishonadigan barcha shaxslar va tabiat hodisalarini tabiiy sabablar deb qaraydiganlarni materialistlar deydigan bo‘lsak, u holda Suqrot, Aflotun, Arastu, Forobiy, Ibn Sino, Sadr-ul-mutallihiy, Dekart, shuningdek barcha payg‘ambarlar va mazhab peshvolarini materialist deyishimiz lozim bo‘ladi.

Bundan tashqari, ko‘plab falsafiy asarlarda qadimgi yunonlarning tabiatdan tashqari olam va vujud haqida fikrlari bayon etilgan bo‘lib, ularning rasman ilohiy

¹. ۲۴ ص ؟ سال، دفتر انتشارات اسلامی، با پاورقی استاد مطهری، علامه طباطبایی، اصول فلسفه و روش رئالیسم، (O’sul-e falsafe va ravesh-e realism, Allome Tabotaboiiy, bo povaraqi o’stod Mo’taharriy, daftar-e enteshorot-e esloimiy, sol-e ?, sahive-e 24.)

ekanligi ta'kidlangan, masalan, Fales va Anaksimening borliq ilmi haqidagi qarashlarida mazkur masalalar ko'tarilgan va tabiatdan tashqaridagi olam va vujud haqidagi fikrlari ilgari surilgan. Yana bir misol, Lyudvig Byuxner Geraklit fikrini keltiradi. Unga ko'ra, "inson o'zi, ilohiy azaliyatdan kelib chiqqan otash shu'lasidir", deyiladi. Demak, materializm konsepsiyasini shakllanishi to'g'risida bu kabi ko'plab davolarni ilgari surish maqsadga muvofiq emas. Materializm borasidagi g'oyalar falsafa tarixining ilk davrlaridanoq shakllangan bo'lishi mumkin emas.

Boshqa bir antik davr faylasufi Empidoklni "darwinizmning birinchi otasi", deb hisoblasada, oqibatning tasavvurini u birinchi bo'lib yaxshi bayon etganligiga ishora qiladi. Uning fikricha, "u insonlarning o'zaro farqlanishiga ishonadi va bu jihatni inson qaytadigan bir ma'naviy g'oyaga bog'laydi va bu jihatdan "rohat, shavq va ishq"dan iborat oliy holat tomonga qaytadi". Geraklit "olamning asli ba'zida yonayotgan holatdagi, ba'zida so'nayotgan holatdagi olovdir va buning o'zi bir o'yin bo'lib Yupiter (xudolardan biri) shunday qiladi", degan fikrlarni ilgari suradi.

Tabotaboiy fikricha, materialistlar ilohiy masalalarni chuqur o'rganmay, o'zlaricha yuqoridagi masalalar tabiat olamidan tashqaridagi olamga ishonish tufayli vujudga keladi, deb gumon qiladilar va shuning uchun bu masalaga kirishgan har bir kishini materialist deb ataydilar. Shu narsa aniqki, qadimgilar orasida ruh tajarrudi va o'limdan keyingi hayotni inkor etgan bir qator shaxslar bo'lgan. Demokrit, Epikur va izdoshlarini bu qarashlar sohibi deb biladilar. Ammo, ular bu borada yanglish fikrda ekanligini anglamaydi. Alloma Tabotaboiy haqiqiy materialistik falsafasi va xudoni inkor qilish g'oyasini Lyudvig Byuxnerning yozib qoldirganlari asosida asoslashga urinadi. Unga ko'ra, "faqat o'n sakkizinchi asrda bir guruh rasman Xudoni inkor etgan. Braun Golbax 1770-yilda "Tabiat nizomi" nomli kitob yozdi va rasman Xudo va dinni inkor etgan".¹ Mana shundan so'ng materilizm falsafsining shakllanishi boshlangan, deb hisoblaydi.

XIX asrning ikkinchi yarmida materialistik falsafa bozorini rivojlantirgan darvinizm jarayoniga qo'shimcha ravishda yangi bir jarayon paydo bo'ldi va bu

1. اصول فلسفه و روش رئالیسم، علامه طباطبائی، با پاورقی استاد مطهری، دفتر انتشارات اسلامی، سال؟ ص ۲۶. O'sul-e falsafe va raveshe-realism, Allome Tabotaboiy, bo povaraqi o'stod Mo'taharriy, daftar-e enteshorot-e eslomiy, sol-e ?, sahife-e 26.)

moddiyunchilikka yangi shakl va qiyofa berdi va “dialektik materializm” nomli yangi bir maktab vujudga keldi. Bu maktabga Karl Marks va Fridrix Engels asos soldi va bu maktabning asosiy belgilaridan biri shuki, ular “dialektika”ning maxsus mantiqiga ergashadilar. Karl Marks qisqa muddat Germaniyaning yirik faylasufi Gegelning shogirdi bo‘lgan va dialektik mantiqni undan o‘rgangan. Aslida Gegel o‘z falsafiy qarashlari nuqtai nazardan materialist emasdi, lekin Karl Marks materialistik falsafani ma’qul topdi va uni ustozidan o‘rgangan dialektik mantiqdan ustun qo‘ydi va dialektik materializm shu tariqa paydo bo‘ldi.

Mutafakkir o‘zining “Falsafa metodi va realizm uslubi” asarida bu kitobdan bir kitobxon oladigan eng oz foyda shu bo‘lishi mumkinki, “dialektik materializm” tarafdorlarining da’volariga qaramay, ilm bilan hech qanday aloqasi yo‘q va uning barcha metod hamda uslublari o‘z qarashlariga asoslangan shaxsiy dalillarga suyanganligini alohida ta’kidlaydi.

XULOSA (Conclusion)

1. Tabotaboii dealektik materializmni tanqid ostiga oladi. Uning fikricha, “uning boshqa beligilaridan yana biri shuki, hozirgi kunga qadar dunyoda vujudga kelgan boshqa falsafiy sistemalarga qarshi o‘laroq, asosiy maqsad chigal falsafiy masalalarni tadqiq etish emas, balki asosiy maqsad ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy maxsus g‘oya va fikrlar uchun asos topishdan iboratdir. Shuning uchun dialektik materializm partiya bilan yonma-yon yurdi. Partiya nashrlarida asosiy maqsad siyosiy yo‘llarni tekislash va barcha to‘siqlarni yo‘q qilishdan iborat bo‘lganligi uchun har qanday yo‘l bilan bo‘lsa ham, partiya metodining “maqsad usulni oqlaydi” degan tushunchasiga binoan erishish mumkin va unga ruxsat berilgan. Partiya usullari haqiqatni boricha bayon etish bilan cheklanmagan, balki usul maqsadni oqlaydigan shaklda jilva berish bilan cheklangan, lekin ilmiy va falsafiy asarlarda, odatda, asosiy maqsad haqiqat izlash hissini qanoatlantirishdan iborat va yuqoridagi usuldan o‘zini tiyadi. Ammo Yevropada turli maktablarning paydo bo‘lishida yana bir umumiy sabab bor va u “yangi ilm”lar bilan bahslasha oladigan kuchli, aqlli va qudratli falsafiy maktabning bo‘lmaganligidadir, ayniqsa, Yevropadagi ilohiy maktab nomiga

ega bo'lgan bir qator zaif aqidalarning mavjudligi maydonni haddan tashqari va keng ko'lamda materialistik falsafaga ochib berdi. Agar siz moddiy (materialistik) kitoblarga murojaat qilsangiz, bular qanday zaif qarash va aqidalarga kuchli hamla qilishlariga guvoh bo'lasiz. Hatto Yevropada ilohiy nazariyaga ega bo'lgan bir qator faylasuflar o'sha ilohiy hikmatning mazmunidan noliganlar.

REFERENCES

1. اصول فلسفه و روش رئالیسم، علامه طباطبائی، با پاورقی استاد مطهری، دفتر انتشارات اسلامی، سال؟
2. Allanazarov M. Kh., Elboeva Sh. B. Manipulations: the effect of youth education as a weapon of universal CULTURE // 30 years of the Convention on the Rights of the Child: modern visas and ways to solve the problem in the field of protection of children's rights. - 2020. - S. 187-191.
3. Allanazarov M. Kh., Turaeva S. Kh. Philosophical theology: do religion and philosophy cooperate with each other? // Young scientist. – 2016. – no. 6. - S. 955-957.
4. Allanazarov M. K. The role of Eastern and Western philosophy in point of view ALLAME TABATABAI // Theoretical & Applied Science. – 2019. – no. 9. - S. 147-150.
5. Allanazarov M. K., Mamasaliev M. M. Allame Tabatabai // INNOVATIVE DEVELOPMENT: THE POTENTIAL OF SCIENCE AND MODERN EDUCATION. - 2020. - S. 106-109.